

## BARIATRIK OPERATSIYA O'TKAZGAN BEMORLARNI OPERATSIYADAN KEYINGI HAYOT SIFATINI O'RGANISH VA NATIJALARNI TAHLIL QILISH

*Shagzatova B.X. , Shokiriy M.O.*

*Toshkent tibbiyot akademiyasi, Toshkent, O'zbekiston*

Butun Jahon semizlik xirurgiya va metabolik buzilishlar federatsiyasi ta'rifiga ko'ra, semizlik – surunkali, ko'p faktorli, genetik va sog'liq uchun xavfli bo'lgan kasallik. Organizmda ortiqcha yog' to'planishi jiddiy tibbiy, psixosotsial, fizik va ekonomik oqibatlariga olib keladi. Hozirgi kunda 18 yoshdan katta insonlar orasida 1,9 milliard insonda semizlik mavjud. Semizlik bilan birga bemorlarda arterial gipertenziya, o't-tosh kasalligi, yurak ishemik kasalligi, qon aylanish yetishmasligi, noalkolog, jigar yog'li gepatozi, osreoartroz, psixologik dezadaptatsiya, qandli diabet (QD) 2-tip, uyqudagi obstruktiv apnoe sindormi uchraydi.

**Tadqiqot maqsadi.** Bariatik operatsiya o'tkazgan bemorlardagi operatsiyadan oldingi va keyingi hayot sifatini o'rganish. Semizlik bilan kasallangan bemorlarning tana vazn indexi kamayishiga baho berish. Metabolik sindromning belgilari o'zgarishini tahlil qilish. Operatsiyadan keying asoratlarni o'rganish.

**Materiallar va usullar.** Toshkent Tibbiyot Akademiyasi 2-klinikasi klinikasida Tarokoabdominal bo'limda operatsiya o'tkazgan 20 ta kasal kuzatuvga olindi. Ulardan 8 tasi ayol, 12 tasi erkak bo'lib 22 yoshdan 60 yoshgacha, o'rtacha yoshi  $44,2 \pm 0,5$  yosh. Bemorlarda operatsiyadan oldin va operatsiyadan keyin dinamikada tana vazn indexi (TVI), laborator tekshituvlardan qonda glyukoza, lipid spektri, glikirlangan gemoglobin (HbA1c) tekshirildi.

**Tadqiqot natijalari** shuni ko'rsatadiki, operatsiyadan oldin va operatsiyadan keying bemorlarning hayot sifati sezilarli yaxshilandi. Tana vazn indexi operatsiyadan oldin 41 va operatsiyadan so'ng 35. Och qoringa glyukoza miqdori operatsiyadan oldin  $9,2 \pm 0,2$  , operatsiyadan keyin  $5,4 \pm 0,3$ . Lipid aterogenligi operatsiyadan oldin 3,1 , operatsiyadan keyin 2,7. Glikirlangan gemoglobin operatsiyadan oldin 9,6 , operatsiyadan keyin 6,1. Operatsiyadan oldin 12 ta(60%) bemorda tungi apnoe holati kuzatilgan , operatsiyadan keyin 7 ta(35%) bemorda kuzatildi. Operatsiyadan keying asoratlardan yengil gipoglikemiya 1 ta(5%) bemorda va yengil darajadagi demping sindomi 2 ta(10%) ta bemorda yengil darajadagi demping sindomi kuzatildi.

**Xulosa.** Kuzatuv va tahlillarga asoslanib bariatrik operatsiya o'tkazgan semizlik darajasi va metabolik sindrom alomatlari kamaydi. Asoratlar va bemorlarning laborator natijalarini solishtirganda operatsiyadan keyingi bemorlarning hayot sifati sezilarli darajada yaxshilandi.

**Kalit so'zlar:**

1. TVI - tana vazn indexi
2. QD - qandli diabet
3. HbA1c - glikirlangan gemoglobin

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Alfyorova B.I. Mustafina V.I. Rossiya Federatsiyasi kattalar orasida semizlikni tarqalishi Semizlik va metabolizm. <https://cr.minzdrav.gov.ru/schema/28>
2. Rossiya endokrinologlar assotsiatsiyasi, , Bariatrik xirurgiya jamiyati .Klinik rekomendatsiya 2022. Available at: [https://cr.minzdrav.gov.ru/schema/28\\_2/](https://cr.minzdrav.gov.ru/schema/28_2/) [Accessed: 13.06.2022 (in Russian)].